

O'ZBEK VA JAHON ADABIYOTI

UO'K(UDC, УДК): 821.512.133.09-31:17

**BOLALAR ADABIYOTIDA XALQ ERTAKLARI
FUNKSIYALARINING O'RNI²²*****Xamroqulova Xurshida Quvvatovna****Toshkent amaliy fanlar universiteti professori,
filologiya fanlari doktori,
Toshkent, O'zbekiston**E-mail: xurshidaxamroqulova27gmail.com**ORCID ID: 0000-0003-1850-9270***ANNOTATSIYA**

Mazkur maqola xalq ertaklari bajargan funksiyalarning bolalar adabiyotida tutgan o'rni, bolalar ma'naviy kamoloti, ya'ni ular tafakkuri, ijodiy rivojlanishi, lug'at boyligining oshishi, yozma va og'zaki savodxonlik, bolalarda shakllanadigan madaniy muloqotga ta'sirining ilmiy-nazariy tadqiqiga bag'ishlangan. Xalq ertaklarining millat ma'naviyatiga ko'rsatgan jiddiy ta'siri, avvalo, uning bajaradigan qator vazifalari bilan bog'liq. Bu vazifalarning har biri bola estetik didi va ma'naviyati, tafakkuri va tasavvur olamini boyitishga, rivojlantirishga ayri-ayrancha ta'sir ko'rsatadi. Ertaklarning didaktik, psixologik, ijtimoiy, evristik, badiiy bashorat, estetik, gedonistik, gender tengligini amalga oshirish, kommunikativlik kabi qator vazifalari bolaning shaxs sifatida shakllanishiga ta'sir ko'rsatish barobarida uni madaniy muloqotga o'rgatadi. Bu esa bolaning madaniyatli shaxs sifatida qaror toptiradi.

Xalq ertaklari millatning ma'naviy mulki sifatida asrlar davomida bolalarning va kattalarning tasavvur doirasini kengaytirib, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda ijobiy ta'sir ko'rsatib kelgan. xalq ertaklaribola xayolot dunyosini kengaytirishga, ularda ijodkorlik qobiliyatini oshirishga, jamiyat voqea-hodisalariga faol munosabat bildirishdagi o'ziga xoslikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa ertaklarning bola tafakkuri va ijodiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda jiddiy ahamiyat kasb etayotganini bildiradi.

KALIT SO'ZLAR

Xalq ertaklari, ertak topishmoqlar, topishmoqli ertaklar, ertak aytuvchilar, adabiy ertaklar, bolalar tafakkuri, tasavvur, ijodiy rivojlanish,ertak funksiyalari, tanqidiy fikrlash,ijtimoiy-psixologik omillar.

Received: August 19, 2025**Accepted:** September 11, 2025**Available online:** November 16, 2025²² **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Xamroqulova X. Bolalar adabiyotida xalq ertaklari funksiyalarining o'rni.// Komparativistika (Comparative Studies). — 2025. — Vol.2, № 4(8) — B. 296-320.

THE ROLE OF FOLK FAIRY TALES IN CHILDREN'S LITERATURE***Khamrakulova Khurshida Kuvvatovna****Professor of the Tashkent**University of Practical Sciences,**Doctor of Philological Sciences**Tashkent, Uzbekistan**E-mail: xurshidaxamroqulova27gmail.com**ORCID ID: 0000-0003-1850-9270*

ABSTRACT

This article is dedicated to the scientific and theoretical study of the role of folk tales in children's literature, focusing on their functions in children's spiritual development, including their thinking, creative growth, vocabulary expansion, written and oral literacy, and the influence on the formation of cultural communication in children. The significant impact of folk tales on the nation's spirituality is primarily linked to a number of functions they perform. Each of these functions has a unique influence on enriching and developing a child's aesthetic taste, spirituality, and world of thought and imagination. The various functions of folk tales, such as didactic, psychological, social, heuristic, artistic foresight, aesthetic, hedonistic, gender equality promotion, and communicative, not only affect the formation of a child's personality but also teach them cultural communication. This, in turn, establishes the child as a cultured individual.

Folk tales, as the spiritual property of the nation, have for centuries expanded the imagination of both children and adults, positively influencing the development of creativity, critical thinking, and moral values. Folk tales have a beneficial impact on broadening children's imaginative world, enhancing their creative abilities, and fostering a unique, active response to societal events. This indicates that folk tales play a crucial role in supporting children's cognitive and creative development.

KEY WORDS

Folk tales, fairy tale riddles, riddle tales, storytellers, literary tales, children's thinking, imagination, creative development, fairy tale functions, critical thinking, socio-psychological factors.

РОЛЬ НАРОДНЫХ СКАЗОК В ДЕТСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Хамрокулова Хуршида Кувватовна

доктор филологических наук, профессор

Ташкентский университет прикладных наук,

Ташкент, Узбекистан

E-mail: xurshidaxamroqulova27gmail.com

ORCID ID: 0000-0003-1850-9270

АННОТАЦИЯ	КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА
Данная статья посвящена научно-теоретическому исследованию роли и функций народных сказок в детской литературе как средства духовного развития детей – активизации их мышления, пробуждения творческих способностей, расширения словарного запаса, повышения письменной и устной грамотности, формирования навыков культурного общения. Серьезное влияние народных сказок на духовность нации связано, прежде всего, с рядом выполняемых ими функций. Каждая из этих функций оказывает особое воздействие на обогащение эстетического вкуса и развитие духовности, мышления и воображения ребенка. Такие функции сказок, как дидактическая, психологическая, социальная, эвристическая, художественно-прогностическая, эстетическая, гедонистическая, коммуникативная и функция реализация гендерного равенства способствуют становлению личности ребенка и обучают его культурному общению. Это воздействие формирует ребенка как культурную личность. Народные сказки как духовное достояние нации на протяжении веков расширяли кругозор детей и взрослых, оказывая положительное влияние на развитие творческого подхода, критического мышления и нравственных ценностей. Народные сказки оказывают положительный эффект на расширение горизонтов детского воображения, стимулируют творческие способности детей и развитие у них своеобразного активного отношения к общественным событиям. Это означает, что сказки играют важную роль в поддержке познавательной деятельности и творческого развития детей.	Народные сказки, сказки-загадки, сказочники, литературные сказки, детское мышление, воображение, творческое развитие, функции сказки, критическое мышление, социально-психологическое факторы.

KIRISH

Inson tafakkuri va ijodkorligini rivojlantirish XXI asrning ta'lim tizimi, xususan, adabiy ta'limida muhim vazifa hisoblanadi. Adabiy ta'limda hech bir manba bolalarga ertaklar kabi kuchli ta'sir ko'rsata olmaydi. O'zbek xalqi ma'naviy merosida bolalar uchun atalgan janrlar salmoqli o'rin tutadi. Bola ma'naviy hayotiga jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi, uni xayolotning uchqur otida sayr qildiruvchi, ayni vaqtda kelajakda buyuk kashfiyotlar yaratishiga sabab bo'ladigan janrlardan biri sirli-sehrli olam hodisalariga va sarguzashtlarga boy ertaklarning mavjudligidir. Ertak mustaqil janr sifatida shakliy barqarorlikka ega, mavzular ko'lami keng, qahramonning ajabtovur sarguzashtlarini bayon qiluvchi, asrlar davomida shakllangan milliy qadriyatlar, xalq turmush tarzi, an'analari va urf-odatlarini o'ziga xos tarzda epik talqin qiladigan nasriy asar hisoblanadi. Sir emaski, asrlar qa'ridan yetib ketgan xalq ertaklari bolalar ongini shakllantirish, tafakkurini o'stirish, ming yillar davomida shakllangan milliy qadriyatlarni avaylashga o'rgatish, ularni ongiga, turmush tarziga singdirish, ijodiy fikrlashga yo'naltirish, tasavvurini boyitish, ularda ijodkorlik salohiyatini oshirish, ijtimoiy qadriyatlarni avaylab-asrash va o'zlarining ham mana shu qadriyatlarni keyingi avlodga yetkazuvchisi etib yo'naltirish hamda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim vosita bo'lib kelgan. Mazkur maqolada ertak funksiyalarining bola tarbiyasi va ma'naviy kamolotiga ko'rsatadigan jiddiy ta'siri tahlillar asosida ko'rsatib berildi.

ASOSIY QISM

Ertak haqida. Qadimdan ertaklar professional ijrochilar tomonidan nasriy usulda og'zaki tarzda ijro etilgan. Ertak janriga mansub matnlar so'z san'atining mohir bilimdonlari bo'lgan ertakchilar tomonidan ijro etilishi uning sayqallanishiga sabab bo'lgan. "O'zbek folklori" (Mirzayev T. va boshqalar, 2020, 143-144) kitobida professional ertakchilarning quyidagi turlarini ajratib ko'rsatishgan:

1. Klassik ertakchilar. Kuchli professional tayyorgarlikka ega bo'lgan bunday ertakchilar xalq og'zaki badiiy an'alarini juda yaxshi bilishi, yaxshi ijro mahoratiga ega bo'lishi, ertaklarning syujet va motivini o'zgartirmay ayta oladigan

bo‘lishi talab qilingan. Ertak matniga ko‘ra o‘rni bilan shirali ovozda kuylab ham berishgan.

2. Hajvchi ertakchilar. Bunday ertakni aytuvchilar so‘zga chechan odamlar bo‘lib, xalq sayillarida va tomoshalarida yumor va yengil kulgiga boy ertaklarni ijro etganlar.

3. Qissaxon-ertakchi. Bunday ertakchilar xalq qissalari asosida yaratilgan ertaklarni ijro etishgan.

4. Baxshi-ertakchi. Bunday ertakchilar faqat ertaklar aytib qolmay doston ham ijro etganlar. Albatta ularning repertuarida talay ertaklar ham mavjud bo‘lgan.

“Usta ertakchilar ertak boshlashdan avval tinglovchilarni o‘ziga rom qilib, “sozlab” oladilar.... Zero, ertakchi voqelikni xuddi o‘zi ko‘rganday, guvoh bo‘lganday aytisagina, tinglovchini ishontira oladi. Ertakchi ijro davomida ijodkor – improvizatorga aylanadi. Undagi holatni bir aktyor teatriga qiyoslash mumkin” (Asqarova J., <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/jamila-asqarova-ertakchilik-ananalari>). Ijtimoiy-madaniy turmushdagi o‘zgarishlar, adabiy ertaklarning paydo bo‘lishi, ertaklarning sahna talqinlari paydo bo‘lishi, ayniqsa, multimedialik xususiyati zamon talabiga muvofiq ortishi bilan maxsus ijrochilar hozir ancha kamaygan.

Ertaklarning yaxlit poetik tizim sifatida shakllanishi, o‘ziga xos qurilishi, motivlar tarkibiga egaligi, hayotiy voqea xayoliy uydirmalar bilan talqin etilishiga ko‘ra boshqa janrlardan farq qiladi. Ertakda xalqning ezgu g‘oyalari, o‘ziga xos dunyoqarashi, ma’naviy qadriyatlari, ruhiy-hissiy kechinmalari, oilaviy-maishiy, diniy-axloqiy qarashlari aks etgan. Ertak estetik zavq beribgina qolmay, ma’naviy tarbiya ham beradigan janr hisoblanadi. Ertak “cho‘pchak”, “varsaqi”, “matal”, “ushuk”, “hikoya” tarzida el ichida mashhurdir. Ertaklar – yaxshilikka yetaklar, deyishadi. Buning muayyan asoslari bor. Turkiy xalqlar ertaklari, xususan, o‘zbek xalq ertaklarida ertak hamisha kutilgan yakun – ezgulikning g‘alabasi bilan o‘quvchini o‘ziga rom etadi.

Ertaklarning topishmoqli ertaklar va ertak topishmoq turlari ham bolalar

tafakkurining rivojlanishida alohida o‘rin tutadi. Bunday ertaklar bolaning tasavvur va tafakkurini kengaytirish bilan bir qatorda ularda tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini rivojlantiradi, matematik aniqlikka o‘rgatadi. Topishmoqli ertaklar topishmoq syujetning rivojlanishiga, muhim masalalarning hal etilishiga xizmat qiladi. U ba’zi ertaklarda muhim syujet va epizodlardan birini tashkil qiladi. Topishmoq ertak ichida kelganda qahramon yoki asar personajining aql-idroki, farosati va jasoratini sinash vositasi sifatida qo‘llaniladi. Masalan “Ayozi” nomli ertakka uchta syujetli topishmoq kiritilgan:

1. Ertak qahramoni Ayozi yo‘lda bir chol bilan uchrashib qolib, cholga: “Uzoq yo‘lni yaqin qilaylik”, “Ot bo‘lmasa toy minib ketaylik” deydi. Chol bu iboralarning mag‘zini uncha tushunmaydi va hech narsa demay, yigitning so‘zini o‘z qiziga borib aytadi. Cholning aqlli qizi gapni darrov payqab, otasiga shunday javob beradi. “Uzoq yo‘lni yaqin qilaylik” degani “gaplashib ketaylik”, “Ot bo‘lmasa, toy minib ketaylik” degani “Qari ekansiz, yog‘ochdan hassa qilib beray” degani , – deb tushuntiradi.

2. Qiz o‘zini bilarmonligini ko‘rsatish va shu yo‘l bilan yigitni sinash uchun otasiga: – Shu yigit uch xil yeydigan ovqat olib bersin” deb cholni yigitning oldiga yuboradi. Yigit cholga handalak olib beradi. Handalakning etini o‘zlari, po‘chog‘ini echki va urug‘ini tovuq yeydi.

3. Qiz bir tovoq chuchvaraning ustiga moy quyib, ustidan patirni yopib, Ayozi eltib berish uchun bir kampirga topshiradi va “Kun qorong‘i, yulduzlar zich, oy butun” deb aytishni ta’kidlaydi. Kampir yo‘lda non va chuchvaraning yarmini yeb, moyini ichib, qolganini Ayozi olib boradi va qizning so‘zini aytadi. Ayozi tugunni olib: Kun yorug‘, yulduzlar siyrak, oy yarimta” deb tovoqni qaytaradi. Qiz va ayozi bir-birlarining farosatini yaxshi sinaganlaridan keyin turmush quradi.

Ba’zi ertaklar topishmoqqa asoslanadi. Ularni ertak topishmoq deyiladi. Masalan, bir to‘da g‘oz uchib borar ekan. Bir g‘oz kelib: “Ey yuz g‘oz, salomat bormisiz”, debdi. Unda ulardan biri aytibdi: “Biz yuz g‘oz emasmiz, yana biz miqdori g‘oz bo‘lsa, va yana bizning yarimimiz miqdori va yarimimizning yarmi

bo'lsa, u vaqtda sen qo'shilsang yuz g'oz bo'lamiz" debdi. Havodagi g'ozlar nechta ekan? $36+36+18+9+1=100$ (Topishmoqlar, 1981, 368). Bunday topishmoqlar boladan matematik aniqlikni talab qiladi. Shuningdek, bolada tanqidiy tafakkurni o'stiradi. Demak, ertaklarning jumboqqa asoslanishi bolaning aqliy qobiliyatini ham charxlab boradi.

Ertaklarning xalq og'zaki ijodining janrlari bilan uyg'unlashuvi ularning topishmoqlar bilan birga aks etishidagina emas, balki xalq maqollari bilan ham bog'liqligida ko'rinadi. Shunday ertaklar borki, xalq maqollari ertak sarlavhasida aks etadi. Bu esa shu ertakning didaktik funksiyasini ertakning boshidan aniq qilib qo'yadi. Masalan, "Ilonning ishi zahar solmoq", "Bola podshodir", "Tan sihatlik – tuman boylik" kabi ertak sarlavhalarida maqollarning aks etishi sarlavhaning estetik funksiyasini oshirsa, "Yaxshilar yetsin murodga, dushmanlar qolsin uyatga", "To'g'ri to'g'riligidan maqsadiga yetibdi, Egri egriligidan jazosini tortibdi" kabi maqol va hikmatli so'zlar bilan yakunlanishi masallarga xos qissadan hissa chiqarish vazifasini bajaradi.

Xalq og'zaki ijodining nasriy janrlarida, masalan, ertak, doston kabilarda bir-biriga o'xshash motivlarning uchrash hollari kuzatiladi. Ko'pincha safar motivi, bu jarayonda uchraydigan xatar motivi ("Uch og'a-ini botirlar" ertagi va "Malika ayyor" dostoni), tush motivi, (bu o'rinda qahramonga kelajakda uchrashi mumkin bo'lgan voqea-hodisalarning yoki bo'lg'usi turmush o'rtog'i bo'lgan insonning ko'rinishi kabi), yurtga podsho tanlanishida qushlarning uchirilish motivlarining doston ("Kuntug'mish") va ertak ("Rustamzod va Sherzod")larda uchrayverishi ham xalq ma'naviy-madaniy, ijtimoiy-siyosiy hayotining qadim ildizlariga borib taqaladi (Hamroqulova X., 2025, 47).

Ertak janri yaxlit syujeti va qiziqarli motivlarga boyligi, asosan, nasriy yo'lda bayon qilinishi adabiy ertaklarning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. O'zbek bolalar adabiyotida ertak janri eng ko'p stilizatsiya qilinganini kuzatgan R.Rajabova badiiy adabiyotda she'riy ertaklar, nasriy ertaklar, dramatik ertaklar mavjudligiga e'tibor qaratgan va ularni alohida farqli belgilarini izohlagan (Rajabova R., 2020, 13). Ta'kidlash kerakki, o'zbek folklorshunosligida hozirga qadar ertak janriga

bag'ishlangan qirqdan monografik tadqiqotlarning amalga oshirilgani bu janrning yashovchanligini ko'rsatish bilan barobar uning xalq ma'naviy mulkida tutgan alohida qimmatini ham belgilab beradi (Xamrakulova X., 2024, 486).

Xalq ertaklarining pedagogik-psixologik ahamiyati. Ertak janri bolalar adabiyotida qadimgi janr bo'lish barobarida yashovchanligining ham muayyan asoslari bor. Avvalo, ertak janr sifatida qiziqarli va sarguzashtnamo syujetga egaligi uning turli mavzularda bayon qilinishiga imkon yaratadi. Qolaversa, ertak yosh tanlamaydi, maxsus ertakchilar bilan barobar uni hamma aytishi mumkin. Ertaklar kichik yoshli bolalardan tortib katta yoshli insonlarga ham birday ta'sir ko'rsatadi. Xalq ertaklari bolalarning dunyoqarashi va ijtimoiy xulq-atvorini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Shu bois xalq ertaklarini turlarga bo'lib o'rgangan folklorshunos olimlar ularning har turiga mansub ertaklar jamiyat kishisini tarbiyalashda muhim vosita bo'lib xizmat qilganini uqtiradilar. Ertak tinglash bolalarda:

- **tasavvur faolligini** oshiradi;
- **ijodkorlik** testlarida yuqori ko'rsatkichlarni qayd etishga yordam beradi;
- **axloqiy qadriyatlarni** singdirishda muhim rol o'ynaydi.
- **tanqidiy fikrlash** ko'nikmasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi
- **psixologik** jihatdan pozitiv kayfiyat uyg'otishga xizmat etadi.
- **ijtimoiy** muloqotda faollikni oshiradi.
- **mustaqil xulosa** chiqarishga o'rgatadi va chiqargan xulosasini hayotda qo'llay bilishga yo'naltiradi.

Xalq ertaklarining asosiy funksiyalari

2-jadval

Funksiya	Ta'siri	Misol ertaklardan
Didaktik	Axloqiy qadriyatlarni hurmat qilishga o'rgatadi. Insoniylik sifatlarini kamol toptiradi. Ta'lim va tarbiya berishda muhim o'rin tutadi	"Ikki tabib"
Psixologik	Insonda o'ziga ishonch tuyg'usini shakllantiradi, har qanday vaziyatda o'zini qo'lga ola bilish, maqsad sari intilish, mardlik sifatlarini qaror toptiradi.	"Botir"

Ijtimoiy	Jamoaviy qadriyatlarni shakllantiradi, birdamlik, ahillik kabi sifatlar qaror topadi	“Susanbil”
Evristik	Ertaklar borliqni badiiy obraz vositasida aks ettirish orqali bizning olam, odam va jamiyat haqidagi bilim va tasavvurlarimizni boyitadi.	“Uch og‘a-ini botirlar”
Badiiy bashorat	Ertaklardagi uchar gilam, oyinai jahon kabi sehrli jismlar insonning yaratuvchilik faoliyatidan darak beradi, o‘quvchini ijodkorlikka, ilmiy kashfiyotlarga yo‘naltiradi.	“Uchar gilam”
Estetik	O‘quvchida go‘zallik tuyg‘usini shakllantirish va rivojlantirish, badiiy didni tarbiyalash, yaxshilik va yomonlik, go‘zallik va xunuklik, to‘g‘rilik va egrilik, oliyjanoblik va pastkashlik kabi axloqiy sifatlarni ajrata olishga o‘rgatadi	“Egri va To‘g‘ri” “Zumrad va Qimmat”
Gedonistik	O‘quvchiga zavq va huzur bag‘ishlash vazifasini bajaradi.	“Ur to‘qmoq”
Gender tengligini amalga oshirish	Bu oilada va jamiyatda erkaklar va ayollar o‘rtasida teng huquqlarga erishishni nazarda tutadigan munosabatlarni aniqlay olish imkonini beradi.	“Malikai Husnobod”, “Zulxumor”
Kommunikativ	Ertaklar qadimgi xalq ma’naviyati, ijtimoiy hayoti, olamga va odamga qarashlarini bugungi o‘quvchiga yetkazadilar. Bugunning bolasi ertaklar vositasida qadimgi xalq turmush tarzi haqida axborotga ega bo‘ladilar.	“Uch og‘a-ini botirlar”

Jadvalda xalq ertaklarining bolalar tarbiyasi va psixologik rivojlanishidagi asosiy funksiyalari tizimli ravishda ifodalangan.

Ertaklarning didaktik funksiyasi (Quronov D., 2018, 53-58) orqali ertaklar bolalarga axloqiy qadriyatlarni singdiradi, ezgulik va yovuzlikni ajratib olish, yaxshilikni qadrlash kabi ijtimoiy me’yorlarni o‘rgatadi. Ertaklar tarbiyaviy-axloqiy sifatlarni kamol toptirar ekan, uning sehrli olami hamisha yaxshilikka, ezgulikka moyilligi bilan qahramon dardiga malham bo‘ladi. Ertakda ezgu kuchlar yetarlicha mavjudligini anglashning o‘ziyoq ertakka umrboqiylik bag‘ishlaydi. Shu tariqa, ertaklar nafaqat ko‘ngilochar vosita, balki bola ruhiy holatini tartibga soluvchi psixologik mexanizm sifatida ham xizmat qiladi. Axloqiy qadriyatlar folklorning maqol, matal, afsona va rivoyatlari bilan barobar xalq ertaklarida ifodasini topadi va

u shaxsni tarbiyalashda muhim didaktik vosita bo'lib xizmat qiladi. Xalq ertaklari orasida hayotiy-maishiy muammolarga daxl etadigan ko'plab ertaklar bor. Ular orasida avval tarixiy shaxs bo'lgan ko'plab zotlarning ertak qahramonlariga aylanganini yoxud ilmiy, tajribali va donishmand odamlarning ertakdagi yetakchi obraz sifatida tasvirlanishi ham ertaklardagi didaktik funksiyaning dominant belgiga egaligini ifoda etadi. Bunday ertaklar qatoriga "Navoiy bilan yamoqchining o'g'li", "Navoiy bilan mardikor", "Navoiy bilan Cho'pon", "Ibn Sino va jinni", "Johil podsho va Abu Ali", "Ikki tabib" kabi ertaklarni kiritish mumkin.

Folklorshunos olim Mansur Afzalov tomonidan qayta ishlanib, 1971-yilda nashr etilgan "Ikki tabib" ertagi bir ustozda ta'lim olib yetuk tabib bo'lgan ikki o'rtoq haqidadir (O'zbek xalq ertaklari, 2007, III jild, 247-249). Ulardan biri oqko'ngil, tabobatga chin ixlos bilan yondashadigan Odil ismli yigit. Ikkinchisi esa tabiblikdan foyda axtaradigan ichi qora Jobir ismli odam. Jobir Odil bilan bir shaharda tura olmasligini aytib, Odilga shart qo'yadi. Shartga ko'ra ular bir-birini mehmon qilishi kerak. Shartni bajarmagan odam shaharni tark etadi. Odil Jobirning maqsadini tushunadi va shunday bo'lsa ham uning uyiga mehmonga keladi. Jobir uni turli taomlar bilan siylash asnosida unga bir piyola zahar beradi. Odil zaharni ichadi va uyiga jo'naydi. Oldindan tayyorlab qo'ygan sutlar bilan oshqozonini zahardan tozalaydi. Navbat Odilga kelibdi. U Jobirni mehmonga chaqiribdi. Jobir ham tayyorgarligini ko'rib Odilnikiga ketibdi. Odil uni yaxshi so'zlar bilan kutib olib, oldiga yaxshi taomlar qo'yibdi. Birodarini zaharlab o'ldirishni xayoliga keltirmabdi. Jobir bo'lsa qilgan ishidan juda pushaymon bo'libdi. Ertak kishini hushyor, kechirimli bo'lishga o'rgatadi. Shuningdek, sutning zaharni kesish kuchiga egaligi haqida ham ta'limot oladi. O'quvchi ertak davomida Odilning tutgan yo'lini oqlaydi va unga xayrixoh bo'ladi. Ayni vaqtda Jobirday insonlar bilan birga bo'lmaslik lozimligini tushunib yetadi. Ertak ana shu xulosani o'quvchiga yetkazishi jihatidan ham ahamiyatga molikdir.

Ta'kidlash joizki, xalq ertaklarining didaktik funksiyasi axloqiy qadriyatlarni hurmat qilishda, insoniylik sifatlarini kamol toptirishda ta'lim va tarbiya berish

hamda xalq donoligi bilan bog‘liq ta’limotlarga ega bo‘lishda ham muhim o‘rin tutadi.

Xalq ertaklarining psixologik funksiyasi insonda o‘ziga ishonch tuyg‘usini shakllantiradi, har qanday vaziyatda o‘zini qo‘lga ola bilish, maqsad sari intilish kabi qator sifatlarini qaror toptiradi. Xalq ertaklari orasidan bunga o‘nlab misollar keltirish mumkin. Ertaklarning kishiga ruhiy kuch bag‘ishlash xususiyati tufayli o‘quvchi ertak qahramonlarining mardligiga, imkonsiz o‘rinlarda ham yo‘l topa bilishiga, har qanday vaziyatdan omon chiqib ketishiga ishonadi va ularga xayrixoh bo‘ladi. Ertaklarning o‘ziga ishonch orttira bilish sifati tufayli jahon xalqlari ertak xazinasiga minglab qahramonlikni targ‘ib qiladigan ertaklar jamlangan.

Shuningdek, ertaklarning psixologik funksiyasi kishi ongida va shuurida kechayotgan qo‘rquv, tashvish va ichki ziddiyatlarni bartaraf etishda yordam beradi, bu, ayniqsa, hayvonlar haqidagi ertaklarda aniq ko‘rinadi. 3 jildli “O‘zbek xalq ertaklari”ning birinchi jildi asosan hayvonlar haqidagi ertaklardan iborat. “Buzoq, echki va qo‘zi”, “Qarg‘a bilan qo‘zi”, “Botir echki”, “Bo‘ri bilan tulki”, “Laylak bilan Tulki”, “Susambil”, “Echkining o‘ch olishi” kabi o‘nlab ertaklar hayvonlarning turli tabiatini namoyish qilish bilan barobar insonning ma’naviy qiyofasiga tutilgan oyna bo‘lib xizmat qiladi. Mazmunning lo‘ndaligi, epizodlarning takroriyliги hayvonlar haqidagi ertaklarning yetakchi belgisi hisoblanadi.

Shu bilan bir qatorda o‘zbek xalq ertaklari orasida ham kishiga ma’naviy ruh bag‘ishlaydigan sara ertaklar bisyorligi ko‘zga tashlanadi. Ana shunday ertaklardan biri “Botir” deb nomlanadi. Toshkent hududiga mansub ushbu ertakni 1944-yilda ertak to‘plovchi folklorshunos Jamoliddin Asomiddinov ertak aytuvchi Tohir Zoirovdan yozib olganligi ma’lum. Botirlik kishining alohida xulqiy sifati hisoblanadi. Insonning jismoniy kuchliligi emas, ruhiy jihatdan kuchliligi ham shu insonning fazilati hisoblanadi. Shu ma’noda “Botir” ertagi qahramoni o‘zining yovqur fazilati bilan ertak qahramonlari orasida ajralib turadi. Ertakdan ma’lum bo‘lishicha, Botir ismli bir yigit bug‘doyni un qilib yanchish uchun tegirmon axtarib ketadi. Yo‘ldan ikkita tuxum, bir xurmacha qatiq topib olibdi. Tuxumni cho‘ntagiga

solib, xurmachani yerga ko‘mibdi. Birozdan keyin bir xum topib olibdi qaytishda olib ketaman deb, uni ham yerga ko‘mibdi. Shunday qilib tegirmonga yetib kelganida ko‘pgina qopda turgan un bor ekan-u egasi yo‘q emish. Kech tushib qolganidan shu yerda qolmoqchi bo‘ladi. Tegirmon devlarniki ekan. Ular yarim tunda kelib bazm boshlashadi. Botir qo‘rqanini bildirmay, ularga do‘q qiladi va tegirmonni bo‘shatib qo‘yishi uchun uchta shart aytadi.

Birinchi shart daraxtni siqib uning suvini chiqarish;

Ikkinchi shart yerni bir tepib qatig‘ini chiqarish;

Uchinchi shart yerni bir tepishda o‘ra qilish.

Tabiiyki, shuncha kuchga ega bo‘lsa ham devlar bu shartlarni bajara olmaydi. Yigit daraxtni qo‘lidagi tuxum bilan siqib, go‘yo suvini chiqaradi. O‘zi ko‘mib ketgan yerni tepib, yerning qatig‘ini chiqaradi va ko‘milgan xumni ustidan bir zarb bilan tepib katta teshik ochib o‘ra paydo qiladi. Shu tariqa devlarni shartlarda yutadi va ularning tegirmoniga egalik qiladi. Bu o‘rinda ko‘plab devlar orasidagi yigitning ulardan qo‘rqmay, o‘z fikrini o‘tkaza olgani va qo‘yilgan shartlarni ham topqirlik bilan bajara olgani ertakning asosiy xususiyati hisoblanadi. Xalq ertaklarida qahramon sarguzashti bilan bog‘liq voqealar chuqur va atroflicha ochib berilmaydi. Chunki u hayotiy voqealarga emas ko‘proq xayoliy uydirmalarga asoslanadi. Qahramonlar psixologiyasi ham adabiy asar personajlari singari tahlil qilinmaydi. Shu jihati bilan ertak har qanday yoshdagi odam uchun ma‘qul keladigan ma‘naviy manba hisoblanadi. Xalq ertaklari o‘quvchiga ruhiy madad bo‘ladi, ularga maqsad sari eltadigan ma‘naviy kuch bag‘ishlaydi. Ertak eshitib ulg‘aygan bola ertak qahramonlari kabi o‘zida mardlik, olijanoblik sifatlarini qaror toptirib boradi. Aksariyat hollarda bunday insonlar o‘z yo‘lini topa oladigan, mustahkam qarashga ega, oilasini, yurtini himoya qila oladigan, o‘zlarida shakllantirgan ma‘naviy qadriyatlarni kelgusi avlodga ham yetkazishga qodir insonlar bo‘lib yetishadilar.

Xalq ertaklarining ijtimoiy funksiyasida jamoaviy qadriyatlarni mustahkamlash, do‘stlik, birdamlik va hamkorlik ruhini singdirishda muhim o‘rin tutadi. Bu jihatdan xalq ertaklari orasida “Susanbil” ertagi ijtimoiy munosabatlarni

faol targʻib qiladigan ertaklar toifasiga kiradi. Bu ertak 1938-yilda Andijonlik Sanambibi degan ertakchi ayoldan Sobirjon Ibrohimov nomli folklorshunos yozib olgan. Ertak yozib olingan mahallar nafaqat Andijon, balki butun Oʻzbekiston boʻylab qiyinchilik, ochlik hukm surar edi. Nochor turmush, buning ustiga mahalliy ziyolilarning jadidlar nomi bilan qatagʻon qilinishi, oʻziga toʻqroq odamlarning oʻzga yurtlarga surgun qilinishi avj olgan edi. Xuddi mana shu paytda yozib olingan “Susanbil” ertagida xalqning tinch, osoyishta va toʻq yashash istagi kuchli ifoda etganligi boshqa ertaklar bilan qiyoslanganda aniq koʻzga tashlanib turadi. Ertak yozib olingan vaqt oddiy xalq uchun oilaviy xotirjamlik va roʻzgʻorning butligi har qanday orzudan afzal boʻlgan mahallar edi. Ertakda bir qator hayvonlarning yaxshi hayot kechirish ilinjida birlashishi va osoyishta yashashiga xalaqit qilgan zolim kuchlar (bir toʻp boʻrilar)ga qarshi kurashib, ular ustidan gʻalaba qozonishi va xotirjam hayot kechirib, murod-maqsadiga yetishi aks etgan.

Ertakda ahillik, birdamlik kabi tuygʻu har qanday yovuz kuch ustidan baland kelishi mumkinligi koʻrsatib berilgan. “Susanbil” ertagining maktab darsliklariga kiritilishida ham uning ijtimoiy funksiyasi alohida eʼtiborga olingan. Ertakdan maʼlum boʻlishicha, xoʻjayinlarining adolatsiz munosabatlardan azob tortgan Eshak, Hoʻkiz, va Xoʻroz kabi uy hayvonlari, oʻzlariga yegulik topa olmay juda sarson boʻlayotgan ikkita kalamush va bir toʻp arilar bilan birga toʻkin hayot va erkinlik istab bir mahallar Eshakning onasi aytib bergan Susanbil degan goʻzal makonni izlab yoʻlga tushadilar. Aytilishicha, “Susanbil oʻtning quyugʻi, suvning tinigʻi, unda juda erkinlik, azob-uqubat yoʻq joy ekan”. Susanbilga yetib kelganlarida ular haqiqatan ham bu yerning oʻzlari orzu qilgan maskan ekanligini bilishadi. Ammo ularning tinchligiga Susanbilga yaqin joyda makon tutgan boʻrilar raxna solishadi. Ertakning eng kulminatsion nuqtasi ertak qahramonlarining boʻrilar bilan kurash sahnasi hisoblanadi. Boʻrilar hujumidan Xoʻrozning daraxt ustiga chiqib qichqirishi, Hoʻkizning boʻrilarga hujum qilib shoxi bilan ularni suzishi, Eshakning nari-beri yurib, bor ovozi bilan hangrashi, arilarning boʻrilarni duch kelgan yeridan chaqib nayzasini sanchib olishi, kalamushlarning qoʻrqqanidan bir necha yerlarni kovlab

yer ostiga kirib ketishga urinishlari (bu o‘rinlar ertakda “Kalamushlar bo‘lsa qo‘rqanlardan yerni kovlab kirib ketishga urinibdi. Yer toshloq, qattiq ekan, ular yerni kovlab kirolmabdilar, bir zumda allaqancha yerni o‘yib yuboribdilar” deya tasvirlanadi) holatini bo‘rilar qo‘rquv bilan o‘z podshohiga aytib berish o‘rinlari kulgi qo‘zg‘atadi va hayvonlarning bo‘rilar hujum qilgandagi harakatlarini ta’riflab berish o‘rinlari asarning komik nuqtalari hisoblanadi. Ular kalamushlarni go‘rkov, Eshakni eshon (dindorlar orasida ma’lum bir obro‘ qozongan ruhoni, din peshvosi), Ho‘kizni Munkar-Nakir (islomiy ta’limotga ko‘ra Munkar va Nakir o‘liklarni qabrda so‘roq qiluvchi dastlabki farishtalar), arilarni jon oluvchi Azroyil (o‘lim farishtasi), xo‘rozni so‘fi (masjidda azon aytuvchi kishi; muazzin) deb atashadi.

“Bu bo‘rilarning hamma yog‘i yorilgan, qon oqqan, shishgan, ari chaqqan yuzlari shishib, ko‘zlari ko‘rinmaydigan bir ahvolda ekan. Podshohi va sheriklari bularning ahvolini ko‘rib, rangi o‘chib, qoni qochib, iyaklari qaltirab, ko‘zlari yaltirab qolibdi. Podshoh:

– Sizlarga nima bo‘ldi? – deb so‘rabdi.

– Ey taqsir, bular barra kabob emas (ertakning boshida bo‘rilar ertak qahramonlarini uzoqdan ko‘rib, kabob qilib yeymiz deb fikrlashgan edilar) boshga kelgan bir balo ekan! – deyishibdi.

– Ha, nima bo‘ldi? – desa, bo‘rining biri:

Bular bizning jonimizga qasd qilib kelgan ekan. Uning bir juft go‘rkovi ham bor ekan. Munkar-nakir gurzisi (gurzi – to‘qmoq (dastasi va uriladigan qismi ko‘pincha yog‘ochdan yasaladigan, urishga va zarb berishga moslangan asbob) shaklidagi harbiy qurol) bilan bir urganda, agar sher bo‘lsa ham necha dumalab ketadi, – debdi.

Bo‘rining yana biri:

–Ey mahmadona! Sen tek tur! O‘zim gapiraman. Bularning ichida azroyili ham bor ekan. Jonni olish uchun nayzasini suqsa, azoyi badaning achishib, shishib ketar ekan, – debdi.

Endi bunisi:

–He, sen bilmaysan! Bularning go‘rkovi bilan kelgan ekan. Hali biz o‘lmay turib, har birimizga yettitadan go‘r qazib qo‘yishdi, – debdi.

Unisi aytibdi:

– Sen ko‘rmabsan! Bular so‘fisi bilan kelgan ekan. Hali biz o‘lmay turib, daraxtning tepasiga chiqib, hadeb odamlarni janoza (ko‘mish, dafn marosimi; ko‘mish oldidan o‘lgan kishi haqiga bag‘ishlab o‘qiladigan namoz)ga chaqiryapti.

Unisi:

– Lekin ularning ichida bir kattasi bor ekan. Unisi eshoni bo‘lsa kerak. Bizga yaqinlashmadi, lekin nariroqda turib ish o‘rgatib bularga baqirib turdi. Agar unisi kelganda biz mutlaqo o‘lar edik, – debdi” (O‘zbek xalq ertaklari, 2007, I jild, 53-54).

Xalq ertaklarida qahramonlik sahnalari bo‘rtib, biroz komik ruh bilan ko‘rsatiladiki, bu bolalar tasavvurida qayta jonlanib ertakni o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqini kuchaytiradi. Xuddi shu o‘rinlar bola o‘zini qahramonlar bilan birgaligini his qiladi, ularning g‘alabasini o‘z g‘alabasi kabi qabul qiladi. Bu esa bolada hayotga pozitiv munosabatini ham shakllantiradi, ijtimoiy hayotda tengdoshlari va atrofdagilar bilan munosabatlarida ahillik, birdamlik, o‘zaro yordam, bir-birini qo‘llab-quvvatlash kabi insoniy sifatlarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Xalq ertaklarining evristik funksiyasi bu bilish funksiyasi hisoblanib, borliqni badiiy obraz vositasida aks ettirish orqali bizning olam, odam va jamiyat haqidagi bilim va tasavvurlarimizni boyitish, hayotiy tajribalarimizni oshirishga xizmat qiladi. Har qanday badiiy asarga xos bo‘lgan evristik funksiya xalq ertaklari mag‘ziga singdirilgan ma‘noni anglash, tasavvurlarimizni oydinlashtirish kabi amaliy vazifalarni bajaradi. Xalq ertaklarining hayotiy-maishiy ertaklar turiga mansub “Uch og‘a-ini botir” ertagi bunga yorqin misol bo‘lib, evristik funksiya ertak asosidagi g‘oyani chuqur anglashga va uni hayotga tatbiq etish imkonini beradi. “Uch og‘a-ini botirlar” ertagi 1926-yilda adabiyotshunos va folklorshunos olim Po‘latjon Qayumiy tomonidan qo‘qonlik ertakchi kampir Hamrobibi Umarali qizi og‘zidan yozib olingan.

Evristik funksiyada ertaklarning mavzusi, maqsad va vazifasi qamrovi, qo'yilgan masalaning yechimi hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Bu ertaklar xayoliy uydirma emas, hayotiy uydirmalarga asoslangani uchun ham unda hayotiylik sifatlari barqarordir. Bunday ertaklarda qahramonning aql-idroki, fahm-farosati, bilimi, hayotiy tajribasi, shijoat va jasorati voqealar rivojida hal qiluvchi vazifani bajaradi. Ertakning asosiy qismini nutq, harakat va holat motivlari tashkil etadi. Nutqiy motivlarning aqliy sinov shaklida namoyon bo'lishi qahramonlarning ma'naviy qiyofasini ochib beradi. Bunday ertaklarda nutq momentlari qahramonning ichki olamini belgilasa, harakat va holatlar ertakdagi salbiy qahramonlarning tashqi holatini belgilashda, ularning asl basharasini ko'rsatishda, ijtimoiy illat, ma'naviy qusurlarni fosh etishda qo'llanadi. Hayotiy-maishiy ertak qahramonlari hammasi ham sehrli ertak qahramonlaridek botir va yovqur bo'lmasligi mumkin, ammo aql-farosati, oqilligi va tadbirkorligi birlamchi belgi hisoblanib, qissadan hissa chiqarishga moyillik sezilib turadi. Ko'pincha, bunday ertaklarning oxirida xalq maqollari keltiriladiki, ular ertakka xulosa sifatida ilova qilinadi. Ba'zan maqollar sarlavhaga ham chiqarilishi mumkin. Hayotiy-maishiy ertaklarda topishmoqlardan ham ko'p foydalanilishi, asar qahramonining iqtidorini ko'rsatishga xizmat qiladi.

“Uch og'a ini botirlar” ertagidagi cholning bolalarga bergan o'gitini har bir ota o'z bolalarga uqtirishi lozim bo'lgan nasihatlar sirasiga kiritish lozim. Binobarin, cholning har bir xatti-harakatida xalq donoligining muayyan qirralari namoyon bo'ladi. Xususan, cholning o'g'illari peshonasini silashida ularga bo'lgan mehri, ishonchi va samimiy munosabati ko'rinadi. Xalqimizda taqdir peshonada aks etadi, degan qarash mavjud. Shu ma'noda peshonaning silanishi taqdir yo'lining yorug' va omadli bo'lishidan dalolat beradi. Chol o'g'illariga nasihati orqali otalarning farzand oldidagi burchlarini uqtirgandek bo'ladi: “...o'zimdan keyin baxtsiz bo'lib qolmanglar deb, sizlarni o'qitdim. Yaxshi ot qo'ydim. To'y qildim, voyaga yetkizdim”(O'zbek xalq ertaklari, 2007, I jild, 112). E'tibor berilsa, chol farzandlariga zarur tarbiyaning barchasini bergan. Sog'lom vujud – ruhan va jismonan yetuk insonga xos. Yarog' ishlatishga usta bo'lish – yigitning fazilati. Chin

erkak qo‘rqoq bo‘lmaydi, botirlik va dovyuraklik unga xos. Farzandlariga atagan ne‘matlarida ularning hayotida ro‘y beradigan voqealarni oldindan ko‘ra-bila olishi cholning oddiy ota emas, balki donishmand inson ekanligini ko‘rsatadi. Chol xalq og‘zaki ijodida farzandlarini muayyan maqsadga yo‘llab turuvchi otalar obrazining yana bir go‘zal namunasidir. Ota farzandlariga oq yo‘l tilab, ularning taqdiriga daxl qilmayotgandek ko‘rinsa ham, aslida uning taqdiri farzandlariniki bilan birligini sezish qiyin emas.

Ertaklarda xalq donoligi mujassam. Otaning bolalariga otlarni tanlab berishida ham muayyan ma‘no yashiringan. Qora rang – ulug‘vorlik timsoli. Qora otning katta akaga atalishi ham akaning ukalar oldida salobatga ega bo‘lishi bilan bog‘liq. Yana aka bu ot bilan sherga qarshi kurashadi. Sherning asosiy hammasi tishlashi bilan bog‘liq. Qora ot tishlong‘ich ot bo‘lib, u sherning hammasini qaytarishga qodir.

Saman otning sifatlaridan biri egasiga sadoqatli bo‘lishidir. Uning o‘rtancha farzandga berilishi ham ramziylik kasb etgan. U uka sifatida akaga, aka sifatida ukaga sadoqatini namoyish qilmog‘i lozim. Chunki katta akada ukalar bor, kichik ukada akalar bor. O‘rtancha o‘g‘ilda ham aka, ham uka bor. Shu ma‘noda u tarozining ikki pallasini teng tutishi lozim.

Ko‘k ot xalq dostonlarida G‘irko‘k deb nomlanib juda chopag‘onligi bilan mashhur. Kichik o‘g‘il bir kechada qaroqchilar bilan olishib, podsho o‘rdasidan zarur narsalarni olib, akalar oldiga qaytib kela olishi uchun otining chopqirligi zarur edi. Ko‘k rang tinchlik ramzi hamdir. Kenja botir bir kechada shuncha ishni bir o‘zi bajarib, yomonlarning jazosini beradi. Ham podshohlikning, ham yurtning tinchligini saqlab qoladi.

Otaning otlar ichidan toylarini saralab bergani ham o‘ziga xos ma‘noga ega. Otlar ham yoshiga qarab nomlanadi. Qulun – yangi tug‘ilgan ot (yangi tug‘ilgan qulun yigirma kun davomida yungini tashlab yangi yung chiqaradi. Bu davrda qulun “qora quloq” deb ataladi); yanoq – bir yoshgacha bo‘lgan ot; toy – ikki yoshgacha bo‘lgan ot; g‘o‘non – ikki-uch yashar ayg‘ir; do‘non – to‘rt yoshli ot. Toylar hali

hech kim tomonidan minilmagan bo‘ladi. Ularni kim birinchi minib egar ura, ot shu odamga bo‘ysunadi. Hayotiy-maishiy ertaklarda bir tomondan xalq donoligi

ifodalansa, ikkinchi tomondan, inson orzu-umidlarini xayolot cheksizligi bilan uyg‘unlashtiradi, insonga ma’naviy va estetik huzur bag‘ishlaydi. Ertak voqealari orqali bola hayotda zarur bo‘lgan ko‘plab bilimlarni o‘zlashtiradi. Bular quyidagilarda ko‘rinadi:

1. Farzand va ota o‘rtasidagi munosabat
2. Ota tarbiyasining bola hayotiga ta’siri.
3. Aka-ukalarning o‘zaro munosabati qanday bo‘lishi kerakligi.
4. Yigit kishi qanday fazilatlarga ega bo‘lishi lozimligi.
5. Otlarning tanlanishi va ularning hayotiy asoslari.
6. Xalq ma’naviyatining ertaklarda ham aks etishi.

Xalq ertaklarining badiiy bashorat funksiyasi o‘quvchida ijodiy o‘rish, tasavvur va fantaziyani boyitish va ularni kelajakda ilmiy tadqiqotlarga yo‘naltirish funksiyasi hisoblanib, bola ijodiy va ilmiy kamolotining birlamchi manbasi sifatida xalq ertaklarini ko‘rsatish to‘g‘ri bo‘ladi. Ertaklardagi uchar gilamlar, oyinai jahon kabi sehrli vositalar aviatsiya va televideniye paydo bo‘lishidan ancha avval bashorat qilingan edi. Sehrli ertaklari turiga kiruvchi “Hunarning xosiyati” ertagidagi yog‘ochdan yasalgan uchar ot, “Duradgor bilan tikuvchi” ertagida qulog‘idan burab qo‘ysa uchadigan sandiq, “Uchar gilam” ertagidagi uchar gilam kabi ashyolar odamlarning qadimdan cheksiz fantaziyaga boy tasavvuridan darak beradi. Xalq ertaklarining badiiy bashorat funksiyasi keyinroq yozma adabiyotga ham kirib keldi. Alisher Navoiyning “Xamsa” turkumiga kiruvchi dostonlarida qo‘llangan oyinai jahon, temir odam (robot), temir qush (samolyot), suv osti kemasi (batiskaf) kabi ashyolar ilm-fan taraqqiy qilgan XX asrda kashf etildi.

Hali insonlar aviatsiya nima ekanligi bilmagan paytlaridayoq osmonda uchish, suv ostidagi olamni bilishga intilish, dunyo hodisalaridan xabardor bo‘la bilish kabi istaklarini ertaklarda aks ettirganlar. O‘quvchilar bu ertaklar orqali qadim odamlarning uchqur xayoloti, olamni bilishga intilishlari, ularning yaratuvchilik qobiliyati dastlab tasavvurlarida paydo bo‘lganligi haqida bilib oladilar. Badiiy

bashoratdan darak beruvchi ertaklar sarguzashtlik xususiyatiga ega bo'ladi. Shu bois bunday ertaklarda bir necha voqealar uyushib keladi. Qahramon sarguzashtlari ortida ko'plab insonlarning hayot tarziga oid sirli voqealar ochilib boradi. Ertak qahramonlari qo'lidagi sehrli ashyolar yordamida dunyo sirini bilishga, olam tuzilishi haqida ko'proq ma'lumot olishga intiladilar. Shu jihatdan bunday ertaklardagi sehrli voqealar ham dunyo sirini bilish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Xalq ertaklarining estetik funksiyasi o'quvchida go'zallik tuyg'usini shakllantirish va rivojlantirish, badiiy didni tarbiyalash, yaxshilik va yomonlik, go'zallik va xunuklik, egrilik va to'g'rilik, oliyjanoblik va pastkashlik kabi axloqiy sifatlarni ajrata olishga ko'mak beradi. Deyarli barcha ertaklarda uchraydigan ziddiyatlar insonning ma'naviy olamidagi ezgu fazilatlar va nafs bilan bog'liq illatlar o'rtasidagi kurash asosiga quriladi. Bunga o'nlab, yuzlab ertaklarni misol qilib keltirish mumkin. Bu jihatdan xalq ertaklari bolaning badiiy didini tarbiyalashda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Xalq ertaklarining barcha turlaridagi ertaklar o'zlarida estetik funksiyani bajarganligi uchun xalqda bunday ertaklarga talab kuchli va ular qadimdan hozirgacha xalq ma'naviy olamini boyitishga hissa qo'shib kelmoqda. "Egri va To'g'ri" ana shunday ertaklardan biridir.

Sarlavhasidanoq mazmuni anglashilib turgan bu ertakni 1938-yilda Xorazmda istiqomat qilgan Matnazarov familiyali kishidan folklorshunos olim Buyuk Karim yozib olgan. Ma'lum bo'lishicha, bir qishloqda To'g'riboy ismli bir yigit bor ekan. U tuzukkina ish topish maqsadida yo'lga tushibdi. Unga Egriboy ismli yigit hamrohlik qilibdi. Ikkovlari birga ishlab, birga yurishga ahd qilishibdi. To'g'riboyning bir oti bo'lib, u hamrohining piyoda ekanligidan otni Egriboyga tutqazibdi. Egriboy bo'lsa otga qamchi urib jo'nab qolibdi. To'g'riboy bo'lsa xafa bo'lganicha yo'lda davom etibdi. Qorong'ida yo'ldan adashib bir so'qmoq yo'lga tushib qolgan To'g'riboy qalin o'rmonga kelib qoladi va bir tandirning ichiga kirib yotadi. Bu yer o'rmon hayvonlarining bazmgohi bo'lib, hamma hayvonlar shu yerda o'zlarining sirlarini ochishadi. Yigit tandir ichida yotib, tulkinning g'or ichidagi boyligidan, qashqirning qirq bir tillasi bor sichqonidan, podshohning qiziga davo

boʻladigan daraxt yaprogʻidan, choʻponning qoʻy va otlarini boʻri va sherdan qanday asrash kerakligidan xabar topadi. Ertalab hayvonlar tarqalgach, u tulkinning gʻordagi boyligi, sichqonning tillalariga ega boʻlib, choʻponning qoʻy va otlarini ham saqlab qoladi. Podshohning qizini davolab unga uylanadi. Egriboy boʻlsa oʻzining egriligi, pastkashligi va hasadgoʻyligi tufayli oʻrmondagi alamzada hayvonlar qoʻlida halok boʻladi.

Yaxshilik va yomonlik oʻrtasidagi kurash, yakunda yaxshi insonning mukofotlanishi, yomon odamning jazolanishi haqidagi qarash “Zumrad va Qimmat” ertagida ham boʻrtib koʻrinadi. Ertakni folklorshunos olim Muzayyana Alaviya 1945-yilda Toshkent viloyati Piskent tumanida yashagan Moʻtabarxon Hakimxonavadan yozib olgan. Ertak asosida filmlar suratga olingan. Shoirilar bu ertak asosida shu nomdagi adabiy ertaklar ham yaratishgan. Ertak bir oilada tarbiya topayotgan ikki qiz Zumrad va Qimmat haqida. Ular bir oilada tarbiya topayotgan boʻlishsa-da oiladagi tengsizlik, kampirning oʻgay qizi Zumradga qilayotgan adolatsizligi, Qimmatning ham Zumradga yomon munosabatda koʻrsatishiga sabab boʻladi. Oilada cholning oʻrni yoʻqligi Zumradning oʻgay ona va oʻgay singil tomonidan azob chekishiga olib keladi. Zumrad oʻzining ezgu xulqi bilan kampir va uning erka, yalqov qizi Qimmatdan boshqa barchaga, hatto qushlar, hayvonlar va gullarga ham manzur boʻladi. Uning mehnatkashligi va odobi oʻrmondagi sehrigar kampirga ham maʼqul keladi. Ertaklar hamisha insonni yaxshilikdan umidvor qiladi. Ertak oʻrmondagi sehrigar ayolning Zumradni mukofotlashi va Qimmatni jazolashi bilan yakuniga yetadi. Xalq ertaklarida yaxshilikning mukofoti, yomonlikning jazo olishi kabi azaliy hukmlar boʻrtib koʻrinadi. Bunday ertaklarda bolaning tarbiyasiga jiddiy taʼsir koʻrsatadi, oʻzida yaxshi xulqlarni kamol topishiga xizmat qiladi.

Ertaklarning gedonistik funksiyasini oʻzbek xalqining mashhur ertagi boʻlmish “Ur toʻqmoq” ertagida kuzatish mumkin (Oʻzbek xalq ertaklari, 2007, I jild, 16-19). Mazkur ertak oʻtgan asrning oʻrtalarida atoqli yozuvchi Mirkarim Osim toʻplagan ertaklar orasidan saralanib, folklorshunos olimlar Mansur Afzalov va Xolid Rasul tomonidan nashrga tayyorlangan. Ertakda asar qahramoni cholning oʻzi istagan “Ochil, dasturxon” (bu dasturxonning siri shundaki, unga “Ochil, dasturxon” deb

buyruq berilishi bilan u xohlagan noz-ne'matni tayyor qiladi), "Qayna, xumcha" (unga xohlagan paytda "Qayna, xumcha" deb buyruq berilsa, shu zahoti undan tilla va kumush tangalar qaynab chiqaveradi), "Ur, to'qmoq" (bu to'qmoqning xosiyati shundaki, "Ur, to'qmoq" deb unga buyruq berilsa, zolim kimsani urib, jazosini beradi) kabi sehrli vositalarga erishishi bilan maishiy turmushini izga tushirish imkoni yaratiladi. Ertak cholning, shu orqali oddiy xalqning to'kin ("Ochil, dasturxon" yordamida) va to'kis ("Qayna, xumcha" vositasida) yashash, jamiyatda adolatsizlikka qarshi tura olish ("Ur, to'qmoq" vositasida) kabi azaliy orzulariga yetishtiradi. Bu esa insonga hayotdan zavq va surur olib yashash imkonini taqdim qiladi. Ertak tinglovchisi bo'lgan bola ham xalqning ana shunday azaliy orzusini chol misolida amalga oshganidan o'zida cheksiz zavq tuyadi. Bu esa xalq ertagining gedonistik vazifasidir. Gedonizm inson uchun oliy maqsad bo'lgan baxt va saodatga erishish va bu tuyg'udan lazzatlanishdir. Ertaklarda gedonistik funksiya asosan ertaklarning yakuniy qismida, ertak personajlarining murod va maqsadga yetishuvida ko'rinadi. Shu jihatdan qaralganda deyarli barcha xalq ertaklari gedonistik funksiyani bajaradi.

"Ur, to'qmoq" ertagi cholning qo'ygan tuzoqqa laylakning tushishi bilan boshlanadi. Xalq ertaklarining o'ziga xos jihatlaridan biri shundaki, ularda barcha mavjudotlar inson bilan bemalol muloqotga kirisha oladi. Shu bois laylakning ham odam tilida so'zlashishi cholni ajablantirmaydi. Hatto "Chol, men laylaklarning boshlig'iman, meni qo'yib yubor, nima tilasang, shuni beraman. Mening makonim shu tog'ning orqasida. "Laylakvoyning uyi qayda?" desang, hamma aytib beradi" deb o'zining kimligi va qanday maqom tutishi haqida cholni ogoh qiladi. Kutilganidek, laylak o'z va'dasida turib birinchi marta cholga "Ochil, dasturxon", ikkinchi marta "Qayna, xumcha", uchinchi marta "Ur, to'qmoq"ni sovg'a qiladi. Har safar laylakning hadyasini cholning soddaligidan foydalangan tanishi olib qo'yishi ertak syujetining sirli-sehrli tarzda davom etishiga xizmat qiladi. Ertak yaxshilikning g'alabasi, ochko'zlikning sharmandali nihoyasi bilan yakunlanadi. Bu ertakni shu asar asosidagi olingan multfilm va animatsion lavhalar asosidagi audio lavhalar o'quvchini ertakni yaxshi tushunishi va o'zlashtirishiga yordam beradi. Ertakning

raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirilishi bolaning ertak matni ustidagi ijodiy ish olib borishiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Shu o'rinda matn va film talqini ustidagi tafovutlarni mustaqil idrok etishga ham o'rganib boradi.

Ertaklarning gender tenglikni ta'minlash funksiyasi oilada va jamiyatda erkaklar va ayollar o'rtasida teng huquqlarga erishishni nazarda tutadigan munosabatlarni aniqlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Bu borada qadimdan Islom ta'limotiga asoslangan xalqning milliy qadriyatlari orasida asrlar davomida shakllangan ayol kishiga hurmat bilan yondashish ustuvorlik qilishi masalasi xalq ertaklarida ham aksini topganini kuzatish mumkin. Bu borada "Dono qiz", "Zulxumor", "Malikai Husnobod", "Aqlli qiz", "Qorasoch pari" kabi ko'plab ertaklar o'zida genderlik funksiyasini yaqqol namoyon qilishi bilan ahamiyat kasb etadi. Masalan, "Qorasoch pari" ertagida podshoh ham mamlakat taqdiriga oid masalalarni vazirlaridan avval Qorasoch pari bilan maslahat qilishi, uning to'g'ri va oqil tadbiri bilan mamlakat ahlining tinch va farovon yashashi aks etsa, "Malikai Husnobod"da ayol zotiga past nazar bilan qaraydigan, o'z xotinlariga ham shu jihatdan sitam o'tkazadigan zolim podshohga oqila va jasur qizi Husnobodning erni er qiladigan ham qaro yer qiladigan ham ayol kishi ekanligini dadil ayta oladi hamda podachi bir yigitga turmushga chiqib, unga to'g'ri yo'l-yo'riq va maslahatlar berib otasidan kam bo'lmagan podsho darajasiga yetkazishi tasvirlangan (O'zbek xalq ertaklari, 2007, I jild, 212-221). "Zulxumor"da esa uchta yigit teng sevib qolgan Zulxumor ularga uchta shart qo'yadi (O'zbek xalq ertaklari, 2007, III jild 372-377). Shu shartlarni bajargan yigitga turmushga chiqish taklifini beradi. Ertak davomida turli sinovlarga uchragan yigitlardan biri oynai jahonni dev va ilon changalidan, yana biri uchar gilamni kimsasiz g'ordan, uchinchisi esa kasallikdan qutqaradigan sehrli olmani boshqa yurt podshosining bog'idan keltirib Zulxumorga tutqazadi. Zulxumor yigitlarning faqat biriga turmushga chiqa olishini, qolgan ikki yigitga tutingan singil bo'lishi mumkinligini aytadi. Oynai jahon va uchar gilamdek noyob buyumlarni yigitlarga qaytarib beradi. Olma keltirib uning jonini saqlab qolgan yigitga esa turmushga chiqishga rozi bo'ladi. Bu qaror hammaga ma'qul keladi.

“Aqlli qiz” ertagida qahramon qizning otasiga hurmat ko‘rsatishi, jasorati va oliyjanoblighi ulug‘lanadi (O‘zbek xalq ertaklari, 2007, I jild. 226-231). Ko‘zi ko‘r otasining mol-dunyosi afzal bilgan uch akasidan farqli o‘laroq qiz otasining ko‘ziga davo izlab uzoq yurtga o‘tlanadi. Yo‘lda ajdarga yo‘liqadi. Ajdar qizning maqsadini bilib unga xolis yordam beradi. Shunday qilib otasiga kerak malhamni izlab ketma-ket shartlarni bajaradi, to‘siqlarni yengib o‘tadi, akalarining xiyonatiga va pastkashligi bilan quduqqa tashlanadi. Shunga qaramay, adolat g‘alaba qiladi. Qiz otasining duosini olib, baxtli hayot kechiradi. Xalq ertaklaridagi ayol qahramonlar kuch-qudrat, aql va salohiyatda hech kimdan qolishmasligi, aksincha, o‘zgalarga ibrat bo‘la olishi, umuman, dunyoning mavjud tartibotlarida ayollarning alohida o‘rni borligini uqtirish nuqtayi nazaridan ham alohida ahamiyatga egadir.

Xalq ertaklarining kommunikativ funksiyasi deyarli barcha ertaklarda mavjud bo‘lib, uzoq o‘tmishdagi ajdodlarimizning odam va olam, tabiat va jamiyatga bo‘lgan munosabatlarini o‘zida ifodalagan. Olam haqidagi dastlabki tasavvurlar, olamni anglashga urinish, yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi azaliy kurashlar va ezgulikning g‘alabasi, axloqiy qadriyatlar, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, oilaning muqaddasligi, qarindosh-urug‘chilik kabi tushunchalar, hayotga muhabbat, maqsad sari intilish, xalqning orzu va umidlari, xalq bunyodkorligi, favqulodda iste’dodli qahramonlar, sehrli vositalarning xalq orzusiga yetishidagi o‘rni kabi tushunchalarning yetkazilishida ertaklar axborot vazifasini bajaradilar. Bola ertakni o‘qish jarayonida xalq turmush tarzi va axloqiy estetik qadriyatlari haqida ma’lumot oladilar. Ya’ni ertaklar qadimgi xalq ma’naviyati, ijtimoiy hayoti, olamga va odamga qarashlarini bugungi o‘quvchiga yetkazadilar. Bugunning bolasi ertaklar vositasida xalq turmush tarzi xususida axborotga ega bo‘ladilar. Buni “Uch og‘a- ini botirlar” ertagida yana bir bor kuzatish mumkin (O‘zbek xalq ertaklari. 2007, I jild, 112-123). Otaning oilada farzandlariga munosabati, ularga bergan ta’limi, halollik va adolat, mehnat insonni ulug‘lashi haqidagi qimmatli o‘g‘itlari tufayli yigitlar qo‘rqmas, shijoatli va jasur, sinchkov va malakali insonlar bo‘lib yetishadilar. Ular birgalikda yo‘lida uchragan barcha sinovlarni yengib chiqadilar.

Shu o'rinda cholning farzandlariga bergan nasihatlariga bugungi o'quvchi uchun ham muhim axborot ekanligini alohida qayd etish lozim.

Xalq ertaklarining muayyan funksiyasini ochib berishga xizmat qiluvchi yuqoridagi jadval ko'rsatilgan funksiyalar bolalar tafakkuri va ijtimoiy-psixologik rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan omillar ekani tahlillarda ochiqlab berildi.

XULOSA

Ertaklar qadimdan bolalar dunyoqarashini shakllantirishning muhim vositasi bo'lib kelgan. Og'zaki ijodiy meros bolalarga tasavvur qilish, ramziy obrazlar yaratish va axloqiy qadriyatlarni o'zlashtirishda beqiyos manba hisoblanadi. Masalan, Zumrad va Qimmat ertagida adolat, mehnatsevarlik va halollik g'oyalari ilgari surilishi bolalarning ijtimoiy qadriyatlarni anglashiga yordam beradi.

Bundan tashqari, ertaklar bolalarning psixologik rivojlanishida ham muhim rol o'ynaydi. ertaklar bolalar uchun ong osti muammolarini qayta ishlash vositasi o'laroq ularga ruhiy-ma'naviy jihatdan madad bo'ladi. Ertaklar bolalarda tasavvur olamining kengayishiga, iqtidorini kashf etishga, til va nutq boyligini oshirishga, axloqiy qadriyatlarni singdirishga va shu orqali o'zida milliy an'analarga hurmat hissini xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirzayev T. va boshqalar. O'zbek folklori. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2020. – 143-144-b.
2. Asqarova J. Ertakchilik an'analari. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/jamila-asqarova-ertakchilik-ananalari>
3. Topishmoqlar. (Tuzuvchi va nashrga tayyorlovchi: Zubayda Husainova) – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981. – 368 b.
4. X.Xamroqulova. Bolalar adabiyoti (darslik). Toshkent: Dimal nashriyoti, 2025. – 436 b.

5. Rajabova R. O‘zbek bolalar adabiyotida folklor janrlari stilizatsiyasi (nasriy ertak va topishmoq misolida). PCHd diss. avtoreferati. – Buxoro, 2020. – 52 b.
6. Xamrakulova X. XX–XXI asr o‘zbek adabiyotshunosligi va folklorshunosligiga oid dissertatsiya va avtoreferatlarning bibliografiyasi (1941-2024-yillar). Toshkent: Yashil yaproq, 2024. – 486 b.
7. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 480 b.
8. O‘zbek xalq ertaklari. III jildlik. III jild. – Toshkent: O‘qituvchi, 2007. – 384 b.
9. O‘zbek xalq ertaklari. III jildlik. I jild. – Toshkent: O‘qituvchi, 2007. – 384 b.
10. O‘zbek xalq ertaklari. III jildlik. II jild. – Toshkent: O‘qituvchi, 2007. – 384 b.

REFERENCES

1. Mirzayev T. et al. (2020). Uzbek Folklore. Tashkent: Tafakkur Böstoni.
2. Askarova J. Traditions of Storytelling. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/jamila-asqarova-ertakchilik-an'analari>
3. Riddles. (1981). (Compiled and prepared for publication by Zubayda Husainova) Tashkent: Gafur Gulom Literature and Art Publishing House.
4. Kh. Khamrokulova. (2025). Children’s Literature (textbook). Tashkent: Dimal Publishing House.
5. Rajabova R. (2020). Stylization of folklore genres in Uzbek children’s literature (on the example of prose fairy tales and riddles). Abstract of PhD dissertation. – Тошкент.
6. Khamrakulova Kh. (2024). Bibliography of dissertations and abstracts on Uzbek literature and folklore studies of the XX-XXI centuries (1941-2024). Tashkent: Yashil Yaproq.
7. Kuronov D. (2018). Fundamentals of Literary Theory. Tashkent: Akademnashr.
8. Uzbek folk tales. (2007). Volume III. Volume III. Tashkent: Teacher.
9. Uzbek folk tales. (2007). Volume III. Volume I. Tashkent: Teacher.
10. Uzbek folk tales. (2007). Volume III. Volume II. - Tashkent: Teacher.